

**PEDAGOGLAR TOMONIDAN DARSDA VA DARSDAN TASHQARI
MUHITDA QO'LLANADIGAN PEDAGOGIK MULOQOTNING
USLUBLARI**

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Annotatsiya: Pedagogik muloqot uslublarini to'g'ri tanlash pedagoglarning darda va darsdan tashqari muhitda bo'ladigan muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Maqolada pedagoglar tomonidan darsda va darsdan tashqari muhitda qo'llanadigan pedagogik muloqotning uslublarini to'g'ri tanlashga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: Правильный выбор методов педагогического общения имеет важное значение в процессе общения педагогов в аудиторной и внеklassной среде. В статье представлена информация о правильном выборе стилей педагогического общения, используемых педагогами на уроках и во внеklassной среде.

Summary: The correct choice of pedagogical communication methods depends on the skill of the teacher. The article describes how a number of problems in the education system can be prevented by reflecting the skills of teachers in choosing pedagogical communication methods to improve the modern education system.

Kalit so'zlar: Muloqot, pedagogik muloqot, muloqot uslublari,

Ключевые слова: Коммуникация, педагогическое общение, методы общения.

Key words: Communication, pedagogical communication, communication methods.

Bugungi kunda ta'lif tizimi sifati va samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun avvalo pedagoglar, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtaqidagi muloqot ma'daniyati va uslubi to'g'ri tashkil etilgan bo'lishi lozim. O'zbekistonda barcha sohalar qatori ta'lif tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar zamirida yosh avlodning tarbiyasi, ta'limi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning yorqin misolini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Bizni o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarmizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan kim - yoshlari. Mayli yoshlari o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lishsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida aks sado berib, o'zligiga

sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”¹- degan fikrlaridan anglashimiz mumkin. Ta’lim tizimida faoliyat ko`rsatayotgan pedagog xodimlarning muloqot madaniyatini rivojlantirish ta’lim sifati va ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Pedagoglardagi muloqot uslubining ayrim hollarda to`g‘ri tanlanmaganligi, muloqotchanlik qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi natijasida ta’lim jarayoni faoliyati sifati va talabalarning o`quv faoliyati motivatsiyasiga nisbatan salbiy ta’sir ko`rsatilmoxda. Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish ko`p jihatdan o`qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini ta’kidlab o’tish lozim.

Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi xalqaro tajriba hamda ta’lim tizimiga qo`yilgan bugungi davr talabalarini inobatga olgan holda o`qituvchi pedagogik muloqot uslublarini talabalar motivatsiyasiga ta’sirini chuqur tadqiq etish va bu borada kerakli tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O`qituvchilarda pedagogik muloqot uslublarni takomillashtirish, ta’lim tizimida tarbiyaviy va ta’limga oid jarayonlarga ta’sir ko`rsatish, talabalar motivatsiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligi, shuningdek, ta’lim muassasalarida o`quv jarayonlarini samarali tashkil etish, salohiyatni ko`tarish, talabalarning bilim va ko`nikmalarini oshirish nuqtai nazaridan zarurati mavzu dolzarbligini yanada oshiradi.

Inson dunyoga kelibdiki atrof muhitni o’rganishga, uni tahlil qilishga kirishadi. O’zini o’rab turgan olamdagи barcha yaratqlarni o’z sezgi a’zolari orqali o’rganishga kirishadi. Miqdor va psixik jihatdan rivojlanib borgani sari unda fikrini bildirishga ehtiyoj yuzaga keladi. O’zig yoqayotgan narsalardan yanada lazzat olishga qiziqishi ortadi. Yoqmaydigan jihatlarni tushuntirishga intiladi. Bu esa uni o’rab turgan olam va undagi insonlar bilan muloqotga kirishishini taqazo etadi. Shu orqali nutqi rivojlanib, muloqot jarayoni shakllanib boradi.

Muloqot – yunoncha so’z bo’lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o’zaro fikr almashuv ma’nosini bildiradi va ikki yoki undan ortiq kishilarning so’zlashuvida paydo bo’adi. ikki va undan ortiq insonlarning o’zaro fikr almashinish jarayonidir.² Pedagogik muloqot deganda pedagog va o’quvchilar jamoasi o’rtasida o’zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o’quv-tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish va o’zaro hamjihatlikni tashkil

¹ Ma’lumot manbai-Uza.uz sayti “Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardandir” ma’ruza matni.

²PEDAGOGIK MAHORAT; Toshkent; “IQTISOD-MOLIYA”-2011 117-bet 76 Xoliqov A. Pedagogik mahorat Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 www.ziyouz.com kutubxonasi 78-bet

etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi. A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi. Faol pedagogik muloqot – o‘qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta’limtarbiya jarayonida o‘quvchilarni bilish va o‘rganish kaliti va o‘quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o‘quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta’lim-tarbiyada maqbul bo‘lgan emotSIONAL muhiti ta’minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to‘sqliarning paydo bo‘lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiypsixologik jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga solib boshqarishni ta’minlaydigan va o‘quv tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchining o‘z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir. Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o‘qituvchi bilan o‘quvchilar jamoasi o‘rtasidagi sermahsul muloqot jarayonini tashkil etmasdan turib, yetarli darajada unumli tarzda amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu tariqa pedagog faoliyatida muloqot: - birinchidan, o‘quv vazifalarini hal etish vositasi sifatida. - ikkinchidan, tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-psixologik jihatdan ta’minlovchi tizim sifatida.

- uchinchidan, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatli olib borilishiga imkon beradigan o‘zaro munosabatlarning muayyan tizimini tashkil etish usuli sifatida. - to‘rtinchidan, busiz o‘quvchining individga xos xususiyatlarini tarbiyalab bo‘lmaydigan jarayon sifatida maydonga chiqadi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot muvaffaqiyatli bo`lishi uchun muloqotda suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarni uni qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglayolmasa pedagogik muloqot o‘z maqsadiga yetmaydi. Ayniqsa, ma’ruza o`tayotganda bu juda muhimdir. Agar hamsuhbatni ko`rish orqali idrok etish imkoniyati bo`lmasa, qo`l barmoqlari va yuz harakatlari orqali bo`ladigan imo ishoralar kambag‘allashib, harakatlar erkinligini yo`qotib qo`yadi. Hamsuhbatning fe’li atvorini idrok etish chog‘ida olinadigan signallar shaxsning keyingi harakatlari va fikrlarini to‘g‘rillab borish uchun asos bo`ladi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogningjismoniy qiyofasidagi ayrim belgilar yuz, qo`llar va yelka harakatlari, o`zini tutishlari, gavdasini qimirlatib imo-ishora qilishlari, so`zlash ohangi axborot tashuvchilar sifatida xizmat qiladi. Muomala vaqtida odoblilik muhim ahamiyatga ega bo`lib, uning muvaffaqiyatli kelishini ta’minlaydi. Uning asosiy vazifalari (axborot almashinuv, o‘zaro ta’sir, o‘zaro idrok qilish) to‘g‘ri amalga oshirishni idora qilib turadi. Har bir fikr bildirilganda muloqotqabul qilinayotganini fahmlab turishi tashqi ko`rinishlari, o`zgarishiga e’tibor berish, uzr so`rash, tavoze bilan murojaat qilish evaziga muomala odobi ushlab turiladi. Muomala jarayonida bir hatti

- harakat o`ylanmay bildirilgan fikr, ortiqcha imo - ishora odobsizlikni keltirib chiqaradi. Odobsizlik esa nizoli vaziyat, qarama - qarshilik ziddiyatlari holatni keltirib chiqaradi. Buning natijasida muomala fikr almashuv o`zini vazifasini nizoli vaziyatga bo`shatib beradi. Pedagogik muloqot pedagogik jarayon mantig`iga mos keladigan dinamik tavsifga ega. Pedagogik muloqotning tuzilishida quyidagi bosqichlar alohida ajratib ko`rsatiladi:

1. Modellashtirish (bashoratga doir) – pedagogik vazifalarga mos o`zaro harakatning kommunikativ tuzilishini o`ziga xos tarzda rejalashtirishni amalga oshirish.

2. Bevosita muloqotni tashkil etish (kommunikativ hujum) – pedagog tashabbuskorlikni o`z qo`liga oladi, guruhni tezlik bilan ishga jalb etish texnologiyasi.

3. Muloqotni boshqarish – qo`llaniladigan ta`sir ko`rsatish metodlarining kommunikativligini ta`minlash (o`quvchilarning tashabbusini qo`llab-quvvatlash, o`quvchilarning tashabbus ko`rsatishini tashkil etish, dialogik muloqotni yo`lga qo`yish, o`z mo`ljalini real sharoit bilan uyg`un tarzda korrektsiyalash).

4. Amalga oshirilayotgan pedagogik muloqot texnologiyasining borishi va natijalarini tahlil etish. Mazkur bosqich ko`pincha o`zining mazmuniga ko`ra muloqotda qayta aloqa bosqichi deb nomlanadi hamda kommunikativ vazifani hal etishning yakuniy bosqichiga mos keladi.

V.A.Kan-Kalik pedagogik muloqotni munosabatlar va o`zaro ta`sir uslublari tashkil etishini ta`kidlab, ularni quyidagi tarzda turkumlaydi:

1) hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo`lgan qiziqishga asoslangan muloqot. Hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo`lgan qiziqish asosidagi muloqotda pedagog ta`lim oluvchilar va ishga nisbatan ijobiy yondashadi.

2) do`stona munosabatlar asosida qurilgan muloqot. Do`stona munosabatlar asosida qurilgan muloqot yuqorida ko`rib chiqilgan muloqot turiga yaqindir. Ayrim pedagoglar do`stona muloqotni noto`g`ri tushunib, chegaradan chiqib ketishadi. O`qituvchi va o`quvchi o`rtasida ma`lum bir masofa bo`lishi kerak. Ushbu masofani aniqlashda o`qituvchining madaniyati, pedagogik takti muhim rol o`ynaydi.

3) o`qituvchi va ta`lim oluvchilarni ma`lum masofada ushlab turuvchi muloqot. Ma`lum masofada ushlab turuvchi muloqotni ham samararali deb bo`lmaydi. Shunga qaramasdan bu keng tarqalgan uslubdir. Bunda pedagog va tarbiyalanuvchilar o`rtasida ma`lum chegara mayjud bo`lib, ularni quyidagicha ta`riflash mumkin: “Men bilaman – sizlar bilmaysizlar”, “Meni aytganimni qilinglar – mening yoshim kattaroq, tajribam ko`proq, bizni tenglashtirib bo`lmaydi”. Bu uslub ko`proq avtoritarga yaqinroq bo`lib, u tashqaridan qaraganda tartibli faoliyatni amalga oshirishga yordam berganday bo`ladi, lekin yuqori samarani bermaydi.

4) qo‘rqtishga asoslangan muloqot. O‘qituvchi va ta’lim oluvchilarni ma’lum masofada ushlab turuvchi muloqotning yuqori darajadagi ko‘rinishi bu qo‘rqtishga asoslangan muloqotdir. U o‘zida ta’lim oluvchilarga salbiy munosabat va avtoritar boshqaruvni majassam etadi. Ushbu uslubni yorqin ifodasi sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin: “Qunt bilan tinglanglar, bo‘lmasa ikki qo‘yaman”, “Hali kunlaringni ko‘rsataman”. Bunday uslub mashg‘ulot paytida salbiy muhitni yuzaga keltiradi. Inson dunyoga to‘liq shakllangan fe‘l-atvor, axloqiy xususiyatlar dasturi bilan tug‘ilmasligi, unga xos fazilatlar, axloqiy me‘yorlar ijtimoiy hayot va oilaviy tarbiya mahsuli ekani barchaga ma’lum. Barcha zamonlarda xalqlar markaziy ko‘cha, maydon va xiyobonlarni millatning jasoratli farzandlari nomi bilan atab kelgan. Ular orasida mardlik namunalarini ko‘rsatgan sarkardalargina emas, ilm-fan, madaniyat, san`at, adabiyot kabi sohalarda jasoratli mehnat qilganlar ham oz emas. Demak, jasorat kasb tanlamaydi. U ijtimoiy-ma`naviy muhit, maqsadli va izchil tarbiya mahsulidir. Shunday ekan, oila va o‘quv maskanlaridagi muhitni yanada takomillashtirish orqali farzandlarimizni ishontirib va ta`sir qilib tarbiyalash mumkin. Shunday ekan, pedagoglar talabalarni yer yuzining eng ishonchli yoshlari etib tarbiyalashlari kerak. Agar shu ishga hafsal, irodayetsagina, biz eng peshqadam millatlar qatoridan o‘rin olishimiz mumkin. Aks holda ularga kashfiyat, mahsulot sotib emas, sotib olib yashashga to‘g‘ri keladi. Ishonishning otasi – aql, onasi – yurak. Ishonch insonning fikrida sodir bo‘ladi, so‘ngra til va xatti-harakat orqali amalga ko‘chadi. Shuning uchun o‘zbek milliy pedagogikasi darg‘alari aql tarbiyasini muallimlar vijdoniga yuklangan muqaddas vazifa, deb ta`kidlab kelgan.

Buyuk ma`rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy fikr tarbiyasi haqida bunday degan edi: Fikr, agar yaxshi tarbiya topsa, Xanjar, olmosdan bo‘lur o‘tkir. Fikrning oynasi olursa zang, Ruhi ravshan zamir o‘lur benur.³ Bu yo‘lda qanchalik ko‘p pedagog yelkadosh bo‘lsa, usul va vositalar qanchalik turlicha qo‘llanilsa maqsadga erishish shunchalik tezlashadi. Pedagogika o‘z usullarini yo‘q narsadan yaratmaydi, ularni o‘ylab topmaydi. U hayotdan kishilar hulq-atvorining real omillarini, talabalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, tarbiyaviy ishda pedagogik ta`sir ko‘rsatish usullari sifatida foydalanadi. Pedagogik ta`sir ko‘rsatish metodikasi talabalarining ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, talabalarining hulq-atvorini rag‘batlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvonch ijodiy zavq-shavq manbaiga, ularning shaxsiy muddaolariga aylanadi.

³ Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud ahloq” asari “Fikr tarbiyasi” bo‘limidan.

Xulosa: Muloqot uslublarini rivojlantirish texnologiyalari ustida bir necha asrlar davomida izlanishlar olib borilmoqda. Jahon pedagogikasida zamonaviy pedagogik muloqot uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublariga transformatsiyasi va rivojlanish istiqbollarini o'rganish zamonaviy pedagogik kadrlar faoliyatida kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Pedagogik faoliyatda muloqot uslublaridan to'g'ri foydalangan holda pedagog kadrlar orasida munosabatga kirishishi osonlashtirish mumkin. Har qanday vaziyatda ham shirin so'zlik insonning mudroq hayolotini yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xoliqov "Pedagogik mahorat" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y.
2. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud ahloq" asari "Fikr tarbiyasi" bo'limidan
3. Kan-Kalik "O'qituvchi pedagogik aloqa to'g'risida: o'qituvchi uchun kitob" 1987 y.
4. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
5. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
6. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 6-11.
7. Ravshanovna, X. S. (2023). Bo 'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo 'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223-234.
8. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
9. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 116-122.
10. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o 'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shaklantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.
11. Ravshnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND

EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 356-361.

12. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABALAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.

13. Ravshanovna, X. S. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.

14. Mustafoyev K., & Muxamedjanov , . M. (2022). ZANJIRSIMON BAXYAQATORLI YO'RMAB TIKISH MASHINALARIDAGI CHALISHTIRGICH MEXANIZMLARI. Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 398–402. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/4707>

15. Mustafoyev Komiljon Ilhom o'g'li. (2023). New Construction of the Looper Mechanism. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 255–257. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1488>

16. Mustafoyev , K.. (2023). LOOPER MECHANISM OF THE SEWING MACHINE. Евразийский журнал академических исследований, 3(4), 16–18. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11848>

17. Sobirovna, S. Y. (2023). Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(4), 160-166.

18. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(5), 108-114.

19. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 361-367.

20. Kozimova, N. A. (2023). Techniques and methods used in the process of psychological counseling. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 338-341.

21. Kozimova, N. A. (2023). PERSONALITY TYPES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 372-377.

22. Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 90-95.

23. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 175-177.
24. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 132–134.
25. Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 494-499.
26. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 468-472.
27. Ne'matovna, T. Z. (2023). “BOSHLANG’ICH TA’LIM PEDAGOGIKASI” MAZMUNI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 324-331.
28. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research* , 1(3), 127-131. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/76>
29. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
30. Gafurovna, L. S., & Pirniyazova, N. V. (2023). A System for Developing The Skills of A Future Primary School Teacher in the Use Of Digital Educational Resources. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 258-262.
31. Gafurovna, L. S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 123-128.
32. Gafurovna, L. S. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 300-309.
33. Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

34. Sobirov, A. (2021). ВИДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В СПОРТЕ И В ЖИЗНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

35. Sobirov, A. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЯЮЩИЙСЯ У СПОРТСМЕНОВ: The features of negative psychological defense, manifested in athletes under the influence of external causes, and the factors causing it are classified. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

36. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 386-388.

37. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.

38. Maxmudova, N. (2018). THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE INNOVATIVE TRAINING PROCESS. *Экономика и социум*, (3 (46)), 34-36.

39. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.

40. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.

41. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*.